



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
2019 yil yanvar-sentyabr (dastlabki ma'lumot)**



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2088,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlari, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlari kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlari ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **29,5 %** ga o'sishni ta'minladi.



**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi**  
(2019 yil yanvar-sentyabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

|  | Korxona va tashkilotlar soni, birlik | Xodimlar soni, kishi | Ish haqi fondi, mln.so'm | O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm |
|--|--------------------------------------|----------------------|--------------------------|------------------------------------|
| <b>Respublika bo'yicha - jami</b>                  | <b>3661</b>                          | <b>145 114</b>       | <b>2 727 114,5</b>       | <b>2 088,1</b>                     |
| <i>shu jumladan:</i>                               |                                      |                      |                          |                                    |
| Sanoat   | 30                                   | 12 721               | 404 048,5                | 3 529,1                            |
| Qurilish   | 13                                   | 2 591                | 60 425,7                 | 2 591,3                            |
| Savdo  | 16                                   | 2 441                | 42 457,8                 | 1 932,6                            |
| Tashish va saqlash                                 | 12                                   | 8 278                | 201 353,0                | 2 702,7                            |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 5                                    | 13                   | 132,9                    | 1 136,2                            |
| Axborot va aloqa                                   | 40                                   | 1 202                | 25 361,5                 | 2 344,4                            |
| Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik     | 95                                   | 3 315                | 110 984,4                | 3 719,9                            |
| Ta'llim  | 1587                                 | 66 949               | 1 047 598,3              | 1 738,6                            |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 80                                   | 24 429               | 364 755,2                | 1 659,0                            |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish                | 158                                  | 2 107                | 30 394,9                 | 1 602,9                            |
| Boshqa faoliyat turlari                            | 1625                                 | 21 068               | 395 163,0                | 2 084,1                            |

**Ish haqi.** 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lif sohasida 1587 ta muassasada 66949 nafar** (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **1 047,6 mlrd. so'mni** (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1738,6 ming so'mni** tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 37,2 % ga o'sdi.


**Ta'lif iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish haqi**

(2019 yil yanvar-sentyabr; kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari)



## Ta'lif iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-sentyabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **2023,3** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 116,4 %), Kegeyli tumanida **1862,8** ming so'mni (107,1 %), Nukus tumanida **1821,4** ming so'mni (104,8 %) va Ellikqal'a tumanida **1801,3** ming so'mni (103,6 %) tashkil etgan bo'lsa, Muynoq tumanida **1410,3** ming so'mni (81,1 %), Shumanay tumanida **1522,6** ming so'mni (87,6 %) va Qorao'zak tumanida **1532,8** ming so'mni (88,2 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida **30** ta korxonada **12721** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 8,8 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **404,0** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,8 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3529,1** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 13,6 %ga o'sdi.

## Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-sentyabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muynoq tumanida **5996,7** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 169,9 %), Nukus shahrida **4893,8** ming so'mni (138,7%) tashkil etgan bo'lsa, Chimboy tumanida **1001,8** ming so'mni (28,4 %), Qo'ng'iroq tumanida **1395,8** ming so'mni (39,6 %) va To'rtko'l tumanida **1410,1** ming so'mni (40,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasida **80** ta muassasada **24429** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,8 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **364,8** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 13,4 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangano'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1659,0** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 39,8 %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'niy o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Taxtako'pir tumanida **2209,2** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 133,2 %), Xo'jayli tumanida **1749,1** ming so'mni (105,4 %), Qonliko'l tumanida **1747,5** ming so'mni (105,3 %) va Qorao'zak tumanida **1691,1** ming so'mni (101,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Taxiyatosh tumanida **1452,1** ming so'mni (87,5 %), Ellikqal'a tumanida **1550,6** ming so'mni (93,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.


### **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi** (2019 yil yanvar-sentyabr; kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati** iqtisodiy faoliyat turida 95 ta muassasada **3315** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **111,0** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,1 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3719,9** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 42,5 % ga o'sdi

## Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-sentyabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



Ushbu sohadagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o`rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **4385,2** ming so'mni (respublikadagi o`rtacha oylik ish haqiga nisbatan 117,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida **2587,7** ming so'mni (69,6 %), Shumanay tumanida **2811,0** ming so'mni (75,6 %) va Qorao'zak tumanida **2817,7** ming so'mni (75,7 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



# 2019 yil yanvar-sentyabrdagi ish haqi eng yuqori bo'lgan:

## SOHALAR

Bank, sug'urta, lizing,  
kredit va vositachilik  
**3 719,9 ming so'm**



Sanoatda  
**3 529,1 ming so'm**



Tashish va  
saqlash  
**2 702,7 ming so'm**



Qurilish  
**2 591,3 ming so'm**



## HUDUDLAR

**Nukus shahri** - **2 638,8** ming so'm

**Qo'ng'irot tumani** - **2 355,6** ming so'm


**Muynoq tumani** - **2 126,1** ming so'm



**Respublika bo'yicha** 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 42,5 %, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 39,8 %, ta'lim sohasida 37,2 % hamda axborot va aloqa sohasida 26,8 % kuzatildi.

### **O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati**

(2019 yil yanvar-sentyabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, %da)




### **Ma'lumot uchun: O'zbekiston**

Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil sentyabr oyida **634,9 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2019 yil yanvar-sentyabr; respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **2638,8** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **126,4** %), Qo'ng'irot tumanida **2355,6** ming so'mni (**112,8%**) va Muynoq tumanida **2126,1** ming so'mni (**101,8 %**) tashkil etgan bo'lsa, Qorao'zak tumanida **1617,6** ming so'mni (**77,5 %**), Shumanay tumanida **1627,1** ming so'mni (**77,9 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo`yicha o`rtacha  
oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-sentyabr; qishloq xo`jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

|                                      | 2018 yil      | 2019 yil      | O'sish sur'ati,<br>% |
|--------------------------------------|---------------|---------------|----------------------|
| <b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b> | <b>1612,2</b> | <b>2088,1</b> | <b>129,5</b>         |
| Nukus shahri                         | 2092,8        | 2638,8        | 126,1                |
| <i>tumanlar:</i>                     |               |               |                      |
| Amudaryo                             | 1162,2        | 1639,1        | 141,0                |
| Beruniy                              | 1175,1        | 1629,3        | 138,7                |
| Qorao'zak                            | 1171,0        | 1617,6        | 138,1                |
| Kegeyli                              | 1297,7        | 1808,7        | 139,4                |
| Qo'ng'iroq                           | 1896,0        | 2355,6        | 124,2                |
| Qonliko'l                            | 1457,8        | 1918,3        | 131,6                |
| Muynoq                               | 1790,2        | 2126,1        | 118,8                |
| Nukus                                | 1320,1        | 1814,8        | 137,5                |
| Taxiyatosh                           | 1495,0        | 1964,2        | 131,4                |
| Taxtako'pir                          | 1431,4        | 1747,9        | 122,1                |
| To'rtko'l                            | 1278,4        | 1749,2        | 136,8                |
| Xo'jayli                             | 1438,7        | 1861,7        | 129,4                |
| Chimboy                              | 1202,4        | 1719,1        | 143,0                |
| Shumanay                             | 1214,3        | 1627,1        | 134,0                |
| Ellikqal'a                           | 1236,8        | 1761,9        | 142,5                |